ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2021 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2021 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR
Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Karomat Mullaxo‘jayeva (o‘zbek)
Qosimjon Ma'murov (ingliz)

MAS’UL KOTIB
Ilyos Ismoilov

TAHRIR HAY’ATI

Zaynobiddin Abdirashidov
Karl Rayxl (Germaniya)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Kamol Abdulla (Ozarbayjon)
Vahit Turk (Turkiya)
Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Mark Toutant (AQSh)
Boqijon To‘xliyev
Qosimjon Sodiqov
Nurboy Jabborov
G‘aybulla Boboyorov
Vali Savash (Turkiya)
Kimura Satoru (Yaponiya)
Hamidulla Dadaboyev
Aftondil Erkinov
Rashid Zohidov
Baxtiyor Abdushukurov
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Dilnavoz Yusupova
Qo‘ldosh Pardayev
Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon)
Nodirbek Jo‘raqo‘ziyev

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Oysara Madaliyeva
“Turkiya kutubxonalaridagi Navoiy qo‘lyozmalari” katalogi va uning navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi 4

Alisher Mahmudov
Olmon adabiyotida salib yurishlariga oid tarixiy bitiklar (G.E.Lessing asarlari misolida) 28

ADABIYOTSHUNOSLIK

Orzigul Hamroyeva
Abu Zakariyyo (Al-Xatib) at –Tabriziyning “Al-kafifi-l aruz val qavofiy (“Aruz va qofiyaga oid kifoya”)” asarida aruz va qofiya tadqiqi **65**

Yulduz Abdulhakimova
Navoiy va Fuzuliy dostonlarining kompozitsion qurilishi **78**

TILSHUNOSLIK

G‘aybulla Boboyorov

Xalach tili va uning o‘zbek tili bilan ayrim yaqinliklari to‘g‘risida 130

SSN 2181-9238 4—20

MATNSHUNOSLIK

TEXTOLOGY

“Turkiya kutubxonalaridagi Navoiy qo‘lyozmalari” katalogi va uning navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi

Oysara Madaliyeva[1]

Abstrakt

1958-yil Turkiyada Ogah Sirri Levend (1897–1978) tomonidan Navoiy asarlari katalogi yaratildi. Katalogda Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining Turkiya hududidagi fondlarda saqlanayotgan nusxalarining monografik tavsifi berilgan. Katalog uch qism – so‘zboshi, tavsif va xulosadan iboratdir. Uning so‘zboshi qismida Navoiy asarlarining qimmati, ularning soni va qo‘lyozmalari xususida muallifning muhim qarashlaridan iborat tadqiqot amalga oshirilgan. Ushbu katalog yaratilgan davri uchungina emas, balki bugungi kun navoiyshunosligi, xususan, uning matnshunoslik va manbashunoslik sohasi rivoji uchun ham muhim manba vazifasini o‘tab kelmoqda.

Kalit so‘zlar: katalog, qo‘lyozma, kulliyot, tavsif, devon, doston.

Kirish

Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy ijodi turk adabiyoti ahli va tadqiqotchilarining doimiy e’tibor markazidadir [Toğan, 1940: 349-357; Nagieva, 1986: 136; Nagiyeva, 2001; Eckmann, 1970: 253-262; Türkay, 1988: 958; Kaya, 1989: 1382; Özdaraedeli, 1989: 1007; Erkinov, 1991: 79-82, Sertkaya, 2004; Erkinov, 2017: 55-65; Lale, 2006: 531; Uluch, 2020: 448; Chetindag‘, 2011; Ro‘zmonova, 2011]. Shu-

[1]*Madaliyeva Oysara Rustamovna* – filologiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.
E-pochta: oysara19@gmail.com
Iqtibos uchun: Madaliyeva, O. 2021. “Turkiya kutubxonalaridagi Navoiy qo‘lyozmalari” katalogi va uning navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi ”. *Oltin bitiglar* 4: 4-20

ningdek, Ogah Sirri Levend Alisher Navoiy asarlarining fihristnavisigina emas, shoir asarlarining tadqiqotchisi sifatida ham navoiyshunoslikka hissa qo‘shgan olimdir [Levend, 1965–1966].

Qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan hali tavsif qilinmagan manbalarning to‘liq, batafsil, yoyiq, ilmiy tavsiflarini yaratish, bu boradagi ishlarni jadallashtirish matnshunoslikning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifasidir. Busiz matnshunoslik fani hatto eng maqbul istiqbolli metodlar naqd bo‘lib tursa-da, rivojlana olmaydi [Lixachev, 1962: 26]. 1958-yilda nashr qilinib, Turkiya qo‘lyozma fondlaridagi juda ko‘p manbalarni ilmiy muomalaga kiritib bergan Ogah Sirri Levendning “Türkiye kitaplıklarındaki Nevai Yazmalari” [Levend, 1958: 127-209] katalogi matnshunoslikning yuqorida ta’kidlangan vazifasini muvaffaqiyatli darajada bajardi.

Muallif katalog so‘zboshisida shunday yozadi: “Turkiy tilni Turkiya turkchasidan va turkiy adabiyotni Janubi-g‘arbiy adabiyot mahsulidan iborat deb hisoblovchilar buyuk turkiynavis shoir Alisher Navoiyni ko‘p ham tilga olmaydilar. Vaholanki, Alisher Navoiy bir butun holda qabul qilish lozim bo‘lgan turkiy adabiyotning tamal toshlaridan biri va eng muhimidir” [Levend, 1958: 127]. Shundan so‘ng olim o‘zining bu boradagi e’tirozlarini o‘rtaga qo‘yadi. Jumladan, turkiy adabiyotda ilk “Xamsa” sifatida uning besh masnaviysidan jamlangan asar bugun qo‘limizda mavjuddir. Bular tadqiq qilinmasdan turib, adabiyotimizda masnaviy janrining rivojlanishi ma’lum bo‘ladimi? “Majolis un-nafois” turkiyda birinchi yozilgan shoirlar tazkirasi sifatida manbalarning eng to‘ridan joy oladi. Bu asarni o‘rganmasdan turib, XV asr adabiy muhiti haqida aytilgan hukm aniq va to‘g‘ri bo‘la oladimi? “Muhokamat ul-lug‘atayn” esa turkiy tilning ozodligiga qo‘yilgan yodgorlikdir. Bugun ushbu asarni tildagi millatsevarlikning bir bayrog‘i sifatida olib yuribmiz [Levend, 1958: 127]. Ushbu fikrlar, bir tomondan, Ogah Sirri Levendning Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini bildirsa, ikkkinchi yoqdan, olimning turkiy til va adabiyot tarixiga befarq emasligini isbotlaydi.

Shuningdek, so‘zboshida Navoiy asarlarining ro‘yxati ham keltirilgan. Ogah Sirri Levend ushbu ro‘yxatni qaysi manbalarga tayanib tuzganini aniq yozmaydi, Navoiyning o‘z ma’lumotlari va mavjud asarlarga tayangan holda tuzildi, deb izohlaydi. Ro‘yxatdan joy olgan asarlar yozilish tarixiga xronologik tarzda quyidagicha turkumlashtirilgan, ular jami 31 tani tashkil etadi[1].

[1]Quyida keltirilgan Alisher Navoiy asarlarining yaratilishiga doir sanalar Ogah Sirri Levend tomonidan ko‘rsatilgan.

Devonlari: “Badoyi’ ul-bidoya” (873/1469 – 887/1482 y.), “Navodir un-nihoya”, “Xazoyin ul-maoniy” (904/1498-1499 y.) tarkibiga kiruvchi to‘rt devon – “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoyi’ ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar”, “Forscha devon” (“Devoni Foniy”) (Boshlanishida ilova qilingan debocha va qasidalar bilan birga, 902/1496 y.).

“Xamsa” dostonlari: “Hayrat ul-abror” (888/1483 y.), “Farhod va Shirin” (889/1484 y.), “Majnun va Layli”[1] (889/1484 y.), “Sab’ai sayyor” (889/1484 – 890/1485 yy.) va “Saddi Iskandariy” (889/1484 – 890/1485 yy.).

Devonlar va “Xamsa” dan tashqari boshqa asarlari:

“Chil hadis” (886/1481-1482 y.), “Vaqfiya” (886/1481-1482 y.), “Nazm ul-javohir” (890/1485 y.), “Tarixi anbiyo va hukamo” (890/1485 y.), “Tarixi muluki ajam” (890/1485 y.), “Holoti Sayid Hasan Ardasher” (896/1490-1491 y.), “Majolis un-nafois” (897/1491-1492 y.), “Munshaot” (897/1491-1492 y.), “Risolayi muammo” (Forsiyda yozilgan bu asarning tarixi noma’lum, Jomiyga taqdim qilingani uchun 898/1492 yildan avval yozilgan.), “Xamsat ul-mutahayyirin” (898/1492 yildan keyin), “Mezon ul-avzon” (898/1492 yildan keyin), “Holoti Pahlavon Muhammad” (900/1494-1495 y.), “Nasoyim ul-muhabbat” (901/1495-1496 y.), “Lison ut-tayr” (904/1498-1499 y.), “Muhokamat ul-lug‘atayn” (905/1499), “Siroj ul-muslimin” (905/1499-1500), “Mahbub ul-qulub” (906/1500-1501 y.), “Munojat” (Kulliyot nusxalarning boshidan joy olgan bu asarning qachon yozilgani noma’lum), “Munshaot” (Forsiy, qachon to‘plangani noma’lum).

Navoiyshunos olim H. Sulaymonov (1910-1979) tomonidan 1963-yilda e’lon qilingan Alisher Navoiy asarlari ro‘yxatida jami 32 asar nomi qayd etilgan [Sulaymonov, 1963: 37-45]. H. Sulaymonov ushbu ro‘yxatni “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Makorim ul-axloq”, “Abushqa”, shuningdek, 808 va 4056 raqamlari bilan Turkiyada saqlanuvchi ikki kulliyot asosida tuzganini ta’kidlaydi [Sulaymonov, 1963: 36-37]. Olim o‘ziga qadar Olim Sharafutdinov, Volin, Bertels, Abdurahmon Sa’diy va Ogah Sirri Levendlar Navoiy asarlari ro‘yxatini tuzganini e’tirof etadi. U Ogah Sirri Levend ro‘yxati haqida to‘xtalib, bu ro‘yxatda “Tarixi anbiyo” tushib qolgan deb aytadi. Ammo Ogah Sirri Levend ro‘yxatida “Tarixi anbiyo va hukamo” asari nomi keltirilgan bo‘lib, olim bu asarni 890/1485 yildan keyin ko‘chirilgan, deb taxmin qiladi. H. Sulaymonov ro‘yxatida keltirilgan, ammo Ogah

[1]Doston nomini muallif shunday keltirgan, “Layli va Majnun” emas: 129-bet.

Sirri Levendda qayd etilmagan asar esa “Fusuli arbaa”dir. Shuningdek, H. Sulaymonov Ogah Sirri Levenddan farqli ravishda asarlarning yozilish tarixinigina emas (ba’zan taxminiy), ularning hajmini va yuqorida tilga olingan manbalarda qayd etilgan yoki etilmaganini ham ko‘rsatib boradi[1].

Ushbu katalogda Navoiy asarlarining Turkiyaning turli qo‘lyozma fondlari va kutubxonalarida saqlanayotgan jami 93 ta qo‘lyozmasi ilmiy tavsif qilingan. Muhimi shundaki, fehrestnavis har bir manbani monografik tavsif qilgan va ular qamrovi jihatidan ilmiy maqolaga teng turadi [Sodiqov, 2017: 185[2]]. Katalogda keltirilishicha, ushbu asarlar quyidagilardir:

KULLIYOT

$^{t}/_{r}$	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	To‘pqopi, Revan: 808	901/1496 y.	Darvesh Muhammad Toqiy
2	Sulaymoniya, Fotih: 4056	-	-

KULLIYOTLAR TARKIBIDAGI DEVONLARNING NUSXALARI

$^{t}/_{r}$	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	To‘pqopi, Revan: 807	932/1526 y.	Nishotiy
2	Istanbul universiteti kutubxonasi: 5452 (muzeyda)	1232/1817 y.	Abdulmunzib Mir Ali
3	Istanbul universiteti kutubxonasi: 2001	1252/1836 y.	Niyoz Muhammad valadi Avaz Muhammad
4	Sulaymoniya, Fotih: 3886	-	-
5	Ko‘niya umumiy kutubxonasi: 6623	-	-

[1]Ogah Sirri Levend va Hamid Sulaymonov “Ilk devon”ni Navoiy devonlari ro‘yxatida keltirmaydi. “Ilk devon” Alisher Navoiy tomonidan emas, uning muxlislari tomonidan tuzilganligi bunga sabab bo‘lishi mumkin.

[2]Ushbu o‘quv qo‘llanmada olim shunday yozadi: “Tavsif uch xil bo‘ladi: qisqacha tavsif, o‘rtacha tavsif, monografik tavsif. ... Monografik tavsif baridan afzal. U keng qamrovli bo‘ladi. ayrim monografik tavsiflar yirik ilmiy maqola qatorida turadi“.

“G‘AROYIB US-SIG‘AR”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Turk – islom muzeyi: 1946	943/1536 y.	Miraliy ul-Buxoriy
2	Turk – islom muzeyi: 2065	-	-
3	To‘pqopi, Revan: 802	-	-
4	To‘pqopi, Revan: 803	939/1532 y.	Chalabiy ul-Kayiniy
5	To‘pqopi, Revan: 804	-	-
6	To‘pqopi, Revan: 806	940/1533 y.	Shayx Muhammad ibn Do‘st Muhammad Samarqandiy
7	To‘pqopi, Revan: 895	-	-
8	To‘pqopi, Revan: 983	-	-
9	Istanbul universiteti kutubxonasi: 5470 (muzeyda)	-	Sultonaliy ul-Kayiniy
10	Sulaymoniya kutubxonasi: Fotih: 3887	-	-
11	Sulaymoniya kutubxonasi, Lala Ismoil: 496	972/1564 y.	-
12	Sulaymoniya kutubxonasi, Abdulloh: 295	-	-
13	Ayoso‘fiya kutubxonasi: 3981	958/1551 y.	Sulton Ali al-Mashhadiy
14	Nuruusmoniya kutubxonasi: 3880	956/1549 y.	-
15	Nuruusmoniya kutubxonasi: 3881	-	-
16	Millat kutubxonasi, Amiriy, manzum: 465	-	-
17	Millat kutubxonasi, Amiriy, manzum: 466	982/1574 y.	Ali ibn Murtazo ibn Muhammad
18	Ko‘niya, Qo‘yuno‘g‘li kutubxonasi: -	-	-
19	Ko‘niya, Qo‘yuno‘g‘li kutubxonasi: -	-	-

“NAVODIR USh-ShABOB”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	To‘pqopi, Revan: 805	910/1504 y.	-

“BADOYI UL-VASAT”

t/r	Saqlanish yeri va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Ayoso‘fiya kutubxonasi: 3980	957/1550 y.	Mahmud kotib
2	O.S. Levendning shaxsiy kutubxonasi: -	-	-

“FAVOYID UL-KIBAR”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Istanbul universiteti kutubxonasi: 1565	947/1540 y.	Jamshid
2	Istanbul universiteti kutubxonasi: 2794	1043/1633 y.	Husayn ibn Haydar al-Husayniy Jurjoniy

TERMA DEVONLAR

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Istanbul universiteti kutubxonasi: 242	981/1573 y.	Ashharulloh
2	Istanbul universiteti kutubxonasi: 3399	-	-
3	Istanbul universiteti kutubxonasi: 3699	-	-
4	Istanbul universiteti kutubxonasi: 5468	-	-
5	Istanbul universiteti kutubxonasi: 5669	930/1524 y.	Olouddin Muhammad

6	Boyazid kutubxonasi: 5691	961/1554 y.	Olimuddin ibn Shayx Ahmad al-Axsikentiy
7	Boyazid kutubxonasi: 5757	-	-
8	Sulaymoniya kutubxonasi, Bog‘dodlik Vahbiy, 1699	-	Sayid Husayn al-Husayniy
9	Nuruusmoniya kutubxonasi: 3975	-	-
10	Nuruusmoniya kutubxonasi: 3999	-	-
11	Nuruusmoniya kutubxonasi: 4970	-	-
12	Millat kutubxonasi, Hakimo‘g‘li Ali: 640	-	-
13	Uskudar, Salim og‘a kutubxonasi, Kamankesh: 454	-	-
14	Ko‘niya, Muzey ixtisos kutubxonasi, 2423	-	-
15	Istanbul, Fahri bilga kutubxonasi: -	886/1481 y.	-

FORSChA DEVON

$^{t}/_{r}$	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Turk – islom muzeyi: 1952	-	-
2	Nuruusmoniya kutubxonasi: 3850	999/1591 y	Kamol ibn Mahmud

“XAMSA”

$^{t}/_{r}$	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	To‘pqopi, Revan: 809	-	-
2	To‘pqopi, Revan: 810	900/1495 y.	Sulton Ali al-Mashhadiy
3	To‘pqopi, Xazina: 802	937/1530 y.	Pirahmad ibn Iskandar

4	Istanbul universiteti kutubxonasi: 5451	-	Mir Ismoil Asrushoniy
5	Sulaymoniya, Fotih: 3754	-	-
6	Sulaymoniya, Fotih: 3755	895/1490 y.	-
7	Sulaymoniya, Asad: 2578	1093/1682 y.	Muhammad Ali ibn Muhammad Hasan
8	Ayoso‘fiya kutubxonasi: 3854	-	-
9	Ko‘niya, umumiy kutubxona: 6627	1244/1828 y.	

“XAMSA”dan[1]

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Istanbul universiteti kutubxonasi: 1191	-	-
2	Istanbul universiteti kutubxonasi: 3230	-	-

“HAYRAT UL-ABROR”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Sulaymoniya kutubxonasi, Shohid Ali: 2156	963/1556 y.	Ilmiy
2	Ayoso‘fiya kutubxonasi: 4334	903/1498 y.	Sulton Muhammad Xandon
3	Amasiya, Boyazid kutubxonasi: 550/2	1155/1742 y.	Olouddin valadi So‘hbatquli Karamonli
4	Istanbul universiteti kutubxonasi: 2794	1044/1634 y.	Husayn ibn Haydar al-Husayniy Jurjoniy

“SAB’AI SAYYoR”

[1]Ushbu nom ostida tavsif qilingan 1191 raqamli qo‘lyozmaning tarkibi: “Hayrat ul-abror” (1^b-45^a), “Farhod va Shirin” (46^b-116^a), “Majnun va Layli” (117^b-160^b); 3230 raqamli qo‘lyozmaning tarkibi: “Majnun va Layli” (1b-51a), “Sab’ai sayyor” (53b-120b) kabi “Xamsa” dostonlaridan iboratdir.

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Istanbul universiteti kutubxonasi: 1409	-	-

“ASARLAR MAJMUASI”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Istanbul universiteti kutubxonasi: 4149	1291/1874 – 1295/1878 yy.	Muhammad Yunus Shahrisabziy

“ARBA’IN”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Sulaymoniya kutubxonasi, Asad: 1441/2	-	-
2	Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih: 3886	-	-
3	Sulaymoniya kutubxonasi, Ashir: 41	-	-
4	Ayoso‘fiya kutubxonasi: 3981	958/1551 y.	Sulton Ali al-Mashhadiy
5	Nuruusmoniya kutubxonasi: 4968	-	Qosim Ali
6	Millat kutubxonasi, Amiriy, manzum: 807	-	-

“NAZM UL-JAVOHIR”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Sulaymoniya kutubxonasi, Qilich Ali: 800/1	932/1526 y.	Pirahmad ibn Iskandar
2	Ayoso‘fiya kutubxonasi: 4334	903/1498 y.	Sulton Muhammad Xandon

“SIROJ UL-MUSLIMIN”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi

1	Sulaymoniya kutubxonasi, Shohid Ali: 1634	-	Hoji Muhammad

“MAJOLIS UN-NAFOIS”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Istanbul arxeologiya muzeyi kutubxonasi: 178	-	-
2	Istanbul universiteti kutubxonasi: 841	942/1535 y.	Burhon ibn Zaynul Havofiy
3	Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih: 4065	-	-
4	Sulaymoniya kutubxonasi, Asad: 1675	-	-
5	Sulaymoniya kutubxonasi, Qilich Ali: 800/2	932/1526 y.	Pirahmad ibn Iskandar
6	Boyazid kutubxonasi, Valiyiddin: 2661	-	-
7	Ayoso‘fiya kutubxonasi: 2045	948/1541 y.	Muhammad ibn hoji Mahmud
8	Millat kutubxonasi: Amiriy, Tarix: 779/1	-	-
9	Millat kutubxonasi, Amiriy, Garulloh: 1573	934/1528 y.	-
10	Anqara davlat kutubxonasi, Ismoil Soib: 1/2286	962/1555 y.	-
11	Anqara umumiy kutubxonasi: 634	-	-

“MAHBUB UL-QULUB”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Istanbul universiteti kutubxonasi: 5757	977/1569 y.	Darvesh Husayn ar-Rumiy
2	Sulaymoniya kutubxonasi, Asad: 1700	-	-
3	Sulaymoniya kutubxonasi, Lala Ismoil: 251	-	-
4	Sulaymoniya kutubxonasi, Lala Ismoil: 252	966/1559 y.	Muso Samarqandiy

“XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIN”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Millat kutubxonasi, Amiriy, Tarix: 779/2	-	-

“VAQFIYA”

t/r	Saqlanish joyi va ashyo raqami	Ko‘chirilish davri	Kotibi
1	Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih: 3886	-	-
2	Millat kutubxonasi, Amiriy, Tarix: 779/3	-	-
3	Millat kutubxonasi, Hakimo‘g‘li Ali: 640	-	-

Shu o‘rinda, katalogda tavsifi keltirilgan ikki asar “G‘aroyib us-sig‘ar” va “Arba’in” qo‘lyozmasi haqida to‘xtalib o‘tsak. Tavsiflovchining ma’lumot berishicha, Navoiyning ikki asarini o‘zida tashiyotgan bu qo‘lyozma (Ayoso‘fiya kutubxonasi: 3981) 958/1551 yil Sulton Ali Mashhadiy tarafidan ko‘chirilgan. Ammo so‘nggi tadqiqotlar ushbu kotibning tug‘ilgan va vafot sanasi haqida 836/1432–33–926/1520 yillarini ko‘rsatmoqda.

2018 yil A.Turdialiyev va A.Erkinov “Badoyi ul-bidoya” devonining yana ikkita sanali Tehron va Istanbul nusxalari mavjud ekanini e’lon qildilar [Erkinov, 2018: 51-57; Turdialiyev, Erkinov, 2018: 57-62]. Ushbu qo‘lyozmalardan biri 889/1484–1485 yilda Sultonali Mashhadiy tomonidan Hirotda kitobat qilingan. Bu nusxa Istanbul shahridagi Ayosofiya kutubxonasida 3981 raqami bilan saqlanadi. Matn ta’liq xatida qalin sharq qog‘oziga ko‘chirilgan. Qo‘lyozma 161 varaq, bichimi – 25,6x17 sm.

Qo‘lyozmaning tarkibi “Arba’in” asari (1b–5b; so‘nggi varag‘i qusurli), shuningdek, g‘azal (6a–144b; boshlanishi va oxirgi varag‘i qusurli), ruboiy va qit’a (145a–154a; boshlanishi va oradagi ayrim varaqlari qusurli), lug‘z (154b–156), muammo (156a–159b), tuyuq (159b) hamda fard (160a–161a) janridagi she’rlardan iborat.

Kolofonida qo‘lyozma ko‘chirilish sanasini beruvchi qit’a ham mavjud. O.Levend (1897–1978) mazkur ta’rix qit’adagi sanani topishda xatolikka yo‘l qo‘ygani ma’lum bo‘ldi [Turdialiev, Erkinov, 2018: 57-62]. Masalaga oydinlik kiritish maqsadida mazkur qit’ani to‘liq keltiramiz:

Agar ta‘riḫ-i ‘imām-i kitābat,
Hameḫāhi bidānï, ey suḥandān.
Tu dar taḥrirï in devān nażar kun,
Burun ašar ham az taḥrir-ï devān.

Katalogda O.Levend ta’rix qit’aning aynan qaysi so‘zlarini olganini ma’lum qilmagani holda devonning ko‘chirilgan yilini 958/1551 yil deb keltiradi. Mashhadiyning vafot sanasi esa 1520 yilga to‘g‘ri keladi. Bu esa olimning qit’adagi sanani aniqlashda yanglishganini bildiradi.

Tahminimizcha, H.Sulaymonov mana shu mantiqsizlik tufayli Mashhadiy ko‘chirgan yana bir Navoiy devoni bor ekanidan xabardor bo‘lsa-da, “Badoyi ul-bidoya”ning Istanbul nusxasini ro‘yxatda keltirmaydi. Zero, olimning doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan iqtibosda: “Bizga xorijiy kataloglardan ma’lum bo‘lishicha, shoirning Mashhadiy ko‘chirgan, ammo biz fotokopiyasini ololmagan yana ikkita terma devoni bor”, deyiladi va O.Levend katalogidan aynan shu qo‘lyozma (№ 3981) va 1218/1803 yilda Tehronda nashr etilgan katalogga ishora qiladi [Suleyman, 1961: 154].

A.Turdialiyev va A.Erkinov ta’rix moddasi qit’aning so‘nggi misrasida berilgani hamda devonning 889/1484–1485 yilda ko‘chirilganini aniqladilar [Turdialiyev, Erkinov, 2018: 58]. Shunindek, qo‘lyozmaning tarkibida “Arba’in” asaridan so‘ng ko‘chirilgan devon “G‘aroyib us-sig‘ar” emas, balki “Badoyi ul-bidoya” ekani ham o‘rtaga chiqdi.

Katalogdagi tavsiflar quyidagi mezonlar asosida yozilgan:

asar nomi, saqlanish yeri, ashyo raqami, muqovasi, muqovaning bichimi, qog‘ozi, xat turi, matnning o‘lchami, matnning necha ustunda berilgani, matnning satri, matn ko‘chirilgan siyoh ranglari, har bir asar yoki janrning boshlanishi va yakuni (arab alifbosida), muhri, qo‘lyozma qaysi davrda qaysi podshoh saroyida saqlangani (muhrdagi yozuvlar asosida), qo‘lyozmaning hajmi, qo‘lyozmaning ko‘chirilish tarixi, ko‘chirilgan yeri, kolofon matni, tarkibi (masalan, devonlarda qaysi janrdagi she’rlarning mavjudligi, hatto g‘azallarning alifbo tartibida yakunlanishiga ko‘ra soni), kotibi va kitobat san’atiga oid ma’lumotlar (qo‘lyozmada miniatyura va boshqa bezaklarning mavjudligi).

Katalogning xulosa qismida keltirilgan ma’lumotlar tadqiqotchining e’tiborini o‘ziga tortadi. Unda tavsif qilingan asarlarning saqlanish yeri ro‘yxati, qo‘lyozmalarning asar nomiga ko‘ra ko‘rsatkichi, Navoiyning qaysi asarlari Turkiyaning muallif tadqiqot o‘tkazgan kutubxonalarida alohida nusxa sifatida mavjud emasligi haqidagi

ma'lumotlar berilgan. Katalog muallifi bir asarning ko'plab nusxalari orasidagi farqlar haqida shunday yozadi:

a) har ikki kulliyot tarkibi bir xil, devonlardagi g'azallar soni va "Majolis un-nafois"dagi shoirlar soni farqlanadi, xolos. "Mahbub ul-qulub", devonlar uchun yozilgan so'nggi debocha va forscha asarlari – bir devon, bir munshaot, bir muammo risolasi – kulliyotda uchramaydi;

b) "Xazoyin ul-maoniy" nusxalari bir-biridan farqlanadi. Jumladan, 5254 va 6623 raqamli qo'lyozmalarda to'rt devon ketma-ket keladi. 807, 2001 va 3886 raqamli nusxalarda esa to'rt devondagi barcha she'rlar alifbo tizimida aralash holda keladi;

v) devonlardagi g'azallar soni turli xil;

g) devonlarda she'rlarning "adashib" qolishi, masalan, har devonda bittadan musta'zod bo'lishiga qaramay, ba'zi nusxalarda bir devon tarkibida ikki musta'zod keladi;

d) "Ashraqat..." bilan boshlanganiga qaramay, "G'aroyib us-sig'ar" tarkibida uchramaydigan she'rlar keladi. Masalan, shoirning muammolari ikkinchi, lug'uz va tuyuqlari uchinchi, fardlari to'rtinchi devon tarkibiga kiritilgan bo'lsada, ba'zan ular "G'aroyib us-sig'ar" devoni nusxalarida ham keladi;

ye) terma devonlar turli did asosida tuzilgani uchun, shubhasiz, farqlidir;

yo) "Majolis un-nafois"da shoirlar soni har xil nusxada turlicha;

j) "Xamsa" va boshqa asarlarning nusxalari esa, ba'zi baytlardagi imlo bilan bog'liq farqlarni hisobga olmasa, deyarli bir xil [Levend, 1958: 208-209].

Ushbu katalogdagi tavsiflar navoiyshunoslikdagi ilk qadamlardan bo'lishiga qaramay, keng qamrovliligi, mukammalligi bilan afzaldir. Undagi tavsiflardan anglashiladiki, tuzuvchi har bir qo'lyozma asarning tarkibini jiddiy o'rganib chiqqan.

Shuningdek, mazkur nashr shu yo'nalishdagi o'zidan keyin yaratilgan kataloglashtirish ishlariga namuna vazifasini o'tadi, deyish mumkin.

Yana bir jihati, ushbu katalog Turkiyaning deyarli barcha fondlari va kutubxonalarida, hatto shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan Alisher Navoiyning qo'lyozma asarlari tavsifini qamrab olgan.

Katalogda keltirilgan qo'lyozma asarlarning qaysi hukmdor saroyida saqlangani haqidagi ma'lumotlar esa madaniy-ma'rifiy a'loqalarning tarixini bayon etadi.

Ogah Sirri Levend tomonidan tuzilgan mazkur katalog o‘tgan asrda faqat sobiq Ittifoq, xususan, yurtimizdagina emas, turkiy dunyo sharqshunosligida ham Alisher Navoiy ijodi yuksak e’tiborda bo‘lganidan darak beradi.

Ushbu katalogni o‘zbek tiliga tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

Eckmann J. 1970. “Nevai’nin ilk divanları üzerine”. *Türk dili araştirmalari yilliği.* Belleten, 13: 253-262. Ankara.

Kaya Ö. 1989*. Ali Sir Nevayi. Fevayidul-kibar*. İnceleme-Metin-Dizin. Doktora tezi. Ankara: Yükseköğretim Kurulu Dokümantasyon merkezi, 1382 s.

Lale U. 2006. Türkmen valiler Şirazlı ustalar Osmanlı okurlar XVI.*Yüzyıl Şiraz elyazmaları*. İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 531 s.

Levend A.S. 1958. “Türkiye kitaplıklarındaki Nevai Yazmalari”. *Türk dili araştirmalari yilliği*. *Belleten*. Ankara. S.127-209.

Levend A.S*.* 1965-1966. Alişir Nevai. I-IV cilt. Ankara: *Türk tarih kurumu basimevi.*

Nagiyeva Dj. 2001*. Azerbaycanda Nevai.* Baku: Elm.

Özdaraedeli N. 1989. Ali Sir Nevayi. İlk divan*. İnceleme-Metin-Dizin.* Doktora tezi. Edirne: Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.1007 s.

Sertkaya O. 2004. *“Ali Şir Nevayi Tarzı ve Nevayi’ye Anadolu’da yazılan Nazireler”* 560. Doğum, 500. Ölüm Yıldönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri 24-25 Eylül 2001. Ankara.

Toğan A.Z.V. 1940. “Ali Şir” *İslam ansiklopedisi.* 3. cilt. İstanbul: Maarif matbasi. S. 349-357.

Türkay K. 1988*. Ali Sir Nevayi. Bedayi ul-vasat.* İnceleme-Metin-Dizin. Doktora tezi.Ankara: Yükseköğretim Kurulu Dokümantasyon merkezi. 958 s.

Лихачев Д.С. 1962. *Текстология. Издательство академии наук СССР.* Москва-Ленинград.

Нагиева Ж. 1986. *Бакинские рукописи Алишера Навои.* Баку: Элм 136 с.

Рўзмонова Р. 2011. *Алишер Навоий анъаналарининг усмонли турк шеъриятига таъсири* (Аҳмад Пошо ва Сайди Али Раис Котибий ижоди мисолида). Филология фанлари номзоди диссертатsiяси. Самарқанд.

Содиқов. Қ. 1963. *Матншунослик ва манбашунослик асослари.* Тошкент.

Сулаймонов Ҳ. 1963. *Навоий асарларининг манбаълари ва нашри ҳақида* Алишер Навоий. Б.37-45. Асарлар: I том. Тошкент.

Сулейман Х. 1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои.* Автореферат – диссертатsiя на соискание ученой

степени доктора филологических наук. 67с. Ташкент.
Турдиалиев А, Эркинов А. 2018. *«Бадоеъ ул-бидоя»нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи қўлёзмаси* (Султонали Машҳадий, Ҳирот, 889/1484-1485 йил) Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий-назарий анжумани материаллари).Тошкент: Turon iqbol. Б. 57-62.
Улуч Л. 2020. *Алишер Навоий асарларининг Истанбул кутубхоналаридаги безакли қўлёзмалари.* Тошкент: Silk Road Media. East Star Media. 448 б.
Четиндағ Ю. 2011. *Алишер Навоий ва усмонли шеърияти.* Н.Ҳасан, Р.Рўзмонова таржимаси. Тошкент: Muharrir.
Эркинов А. 2017. *Алишер Навийнинг Усмонли турклар маданий муҳитидаги ўрни тарихидан (манбашунослик материаллари асосида) Навоий ижоди ва қиёсий таҳлил масалалари (илмий мақолалар тўплами).* Масъул муҳаррир: М.Муҳиддинов. Б. 55-65. Тошкент: Tamaddun.
Эркинов А. 2018. *«Бадоеъ ул-бидоя»нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали бешинчи қўлёзмаси* (888 йил, сафар ойи 1483 йил, март-апрель). *Алишер Навоий ва XXI аср* (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). Тошкент: Turon iqbol. Б. 51-57.
Эркинов С. 1991. *Таниқли навоийшунос турк олими Огаҳ Сирри Левенд ҳақида* Ўзбек тили ва адабиёти. № 4. Б. 79-82.

Catalog of “Navoi Manuscripts in Turkish Libraries” and its contribution to Navoi studies

Oysara Madaliyeva

Abstract

In 1958, a catalog of Navoi's works was created in Turkey by the Ogah Sirri Levend (1897–1978). The catalog contains a monographic description of the manuscripts of Alisher Navoi's works stored in funds in Turkey. The catalog consists of three parts - preface, description and conclusion. The preface contains a study of the author's important views on the value of Navoi's works, their quantity and manuscripts. This catalog was an important source not only during the period of its creation, but also for the development of modern Navoi studies, in particular, the field of textual criticism and source study.

Key words: *catalog, manuscript, kulliyat, description, sofa, poem.*

References

Eckmann J. 1970. “Nevai’nin ilk divanları üzerine”. *Türk dili araştirmalari yilliği.* Belleten, 13: 253-262. Ankara.

Kaya Ö. 1989*. Ali Sir Nevayi. Fevayidul-kibar*. İnceleme-Metin-Dizin. Doktora tezi. Ankara: Yükseköğretim Kurulu Dokümantasyon merkezi, 1382 s.

Lale U. 2006. Türkmen valiler Şirazlı ustalar Osmanlı okurlar XVI.*Yüzyıl Şiraz elyazmaları*. İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 531 s.

Levend A.S. 1958. “Türkiye kitaplıklarındaki Nevai Yazmalari”. *Türk dili araştirmalari yilliği*. *Belleten*. Ankara. S.127-209.

Levend A.S. 1965-1966. Alişir Nevai. I-IV cilt. Ankara: *Türk tarih kurumu basimevi.*

Nagiyeva Dj. 2001*. Azerbaycanda Nevai.* Baku: Elm.

Özdaraedeli N. 1989. Ali Sir Nevayi. İlk divan*. İnceleme-Metin-Dizin.* Doktora tezi. Edirne: Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.1007 s.

Sertkaya O. 2004. *“Ali Şir Nevayi Tarzı ve Nevayi’ye Anadolu’da yazılan Nazireler”* 560. Doğum, 500. Ölüm Yıldönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri 24-25 Eylül 2001. Ankara.

Toğan A.Z.V. 1940. “Ali Şir” *İslam ansiklopedisi.* 3. cilt. İstanbul: Maarif matbasi. S. 349-357.

Türkay K. 1988*. Ali Sir Nevayi. Bedayi ul-vasat.* İnceleme-Metin-Dizin. Doktora tezi.Ankara: Yükseköğretim Kurulu Dokümantasyon merkezi. 958 s.

Lixachev D.S. 1962. *Tekstologiya. Izdatelstvo akademii nauk SSSR.* Moskva-Leningrad.

Nagieva J. 1986. *Bakinskie rukopisi Alishera Navoi.* Baku: Elm 136 s.

Ro‘zmonova R. 2011. *Alisher Navoiy an’analarining usmonli turk she’riyatiga ta’siri* (Ahmad Posho va Saydi Ali Rais Kotibiy ijodi misolida). Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Samarqand.

Sodiqov. Q. 1963. *Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari.* Toshkent.

Sulaymonov H. 1963. *Navoiy asarlarining manba’lari va nashri haqida* Alisher Navoiy. B.37-45. Asarlar: I tom. Toshkent.

Suleyman X. 1961. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi.* Avtoreferat – dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk. 67s. Tashkent.

Turdialiev A, Erkinov A. 2018. *«Badoe’ ul-bidoya»ning Navoiy davrida ko‘chirilgan va yangi aniqlangan sanali oltinchi qo‘lyozmasi* (Sultonali Mashhadiy, Hirot, 889/1484-1485 yil) Alisher Navoiy va XXI asr (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari).Toshkent: Turon iqbol. B. 57-62.

Uluch L. 2020*. Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi bezakli qo‘lyozmalari.* Toshkent: Silk Road Media. East Star Media. 448 b.

Chetindag‘ Yu. 2011. *Alisher Navoiy va usmonli she’riyati.* N.Hasan, R.Ro‘z-

monova tarjimasi. Toshkent: Muharrir.

Erkinov A. 2017. *Alisher Naviyning Usmonli turklar madaniy muhitidagi o‘rni tarixidan (manbashunoslik materiallari asosida) Navoiy ijodi va qiyosiy tahlil masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami).* Mas’ul muharrir: M.Muhiddinov. B. 55-65. Toshkent: Tamaddun.

Erkinov A. 2018. *«Badoe’ ul-bidoya»ning Navoiy davrida ko‘chirilgan va yangi aniqlangan sanali beshinchi qo‘lyozmasi* (888 yil, safar oyi 1483 yil, mart-aprel). *Alisher Navoiy va XXI asr* (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari). Toshkent: Turon iqbol. B. 51-57.

Erkinov S. 1991. *Taniqli navoiyshunos turk olimi Ogah Sirri Levend haqida* O‘zbek tili va adabiyoti. № 4. B. 79-82.